



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRINING BUYRUG‘I

12«sentabr»2024 yil.

01/1366-A/F-son

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini qayta tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6247-son hamda 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–124-son Farmonlari, shuningdek, 2018-yil 4-iyuldagi “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3837-son qaroriga muvofiq

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6247-son hamda 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–124-son Farmonlari, shuningdek, 2018-yil 4-iyuldagi “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3837-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- a) Sport vazirligi huzuridagi **Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi nizom** 1-ilovaga;
- b) Sport vazirligi huzuridagi **Jamoatchilik kengashining tarkibi** 2-ilovaga;
- d) Sport vazirligi huzuridagi **Jamoatchilik kengashining ish rejasi** 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, Axborot xizmati (N.Salomov) Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining (bundan buyon Jamoatchik kengashi deb yuritiladi) ishchi organi hisoblanadi, uning faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatdan ta’minlaydi.

4. Axborot xizmati (N.Salomov)ga:

a) ikki hafta muddatda Jamoatchilik kengashi a'zolari ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasiga kelishish uchun kiritish;

b) "Yuksalish" harakatining so'roviga asosan Jamoatchilik kengashi faoliyatiga doir ma'lumotlarni taqdim etib borish;

d) "Yuksalish" harakatining Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini baholash natijalarini Sport vazirligining rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi sport vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tizimidagi tashkilotlarga **o'n kun muddatda** mazkur buyruq talablaridan kelib chiqib tegishliligi bo'yicha o'zlarining Jamoatchilik kengashlari tarkibini qayta shakllantirib, ular faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha zarur choralarni ko'rsin.

6. Devonxona (S.Rasulova)ga:

a) mazkur buyruq bilan vazirlikning tegishli boshqarma va bo'limlarini tanishtirish;

b) ushbu buyruq nusxasini Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari hamda vazirlik tizimidagi tashkilotlarga, tegishli hamkor tashkilotlarga, shuningdek, Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashiga yuborish vazifalari yuklatilsin.

7. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi sport vazirining 2024-yil 27-maydagi "Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 01/870-A/F-son hamda 2024-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi sport vazirining 2024-yil 27-maydagi "Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 01/870-A/F-sonli buyrug'iga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 01/1045-A/F-son buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



A.Ikramov